

## Mavzu: Jarangli va jarangsiz undoshlar

Aa *Uagt oltindan  
qimmat.*



**Oltin** – yer ostidan topiladigan qimmat-baho va chiroyli sariq rangli metall. Oltin-ning foydali xususiyatlari shunchalik ko‘pki, u hatto zamonaviy texnologiyalarda ham ishlatiladi. Masalan, kompyuter va telefonlarning mayda qismlarini hamda elektr kontaktlarini tayyorlashda undan foydalaniladi. Bundan tashqari, bu metall tibbiyotda tishlarni davolashda, kosmik kema va yo‘ldoshlarni quyosh nurlaridan himoya qilishda ham asqatadi.



1. Jarangli undosh tovushlar qanday hosil bo‘ladi?
2. Jarangsiz undosh tovushlar qanday hosil bo‘ladi?
3. Jufti bor jarangli undoshlar nechta?
4. Qaysi undoshlarning jufti yo‘q?



Jarangli undoshlar: **b, v, z, g, d, j, g’, dj, y, l, m, n, ng, r.**

Jarangsiz undoshlar: **p, f, s, k, t, ch, q, sh, x, h.**



**1-mashq.** Jarangli undosh bilan tugaydigan so‘zlarni yozing.

maktab, savod<sup>1</sup>, o‘quvchi, nasihat, yo‘lak, oftob, havo, voqea, novvot, mehmon<sup>3</sup>, non, kundalik, Davron, darvoza, yulduz, adolat, telefon, farzand, tomosha, tuproq, bog‘

- Istalgan so‘zlar ishtirokida ikkita gap yozing.



**2-mashq.** Zargarlik buyumlarining nomini yozing.



- Ushbu soʻzlarning jarangli undoshi tagiga bir chiziq, jarangsiz undoshlariga ikki chiziq chizing.
- Zargarlik buyumlari nimalardan tayyorlanadi?



**3-mashq.** Jarangsiz undoshlarni tushirib qoldirib, mevalar nomini toping. Shu soʻzlar ishtirokida matn tuzing.

PMTQAXNSHDCHAKTRXIXNFOTLTXMSXASHQ  
FLSKITMCHOXPNSHQAHKNTCHOXPShRQHPXT



**4-mashq.** Matnni koʻchiring. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarning jarangli undoshi tagiga bir chiziq va jarangsiz undoshlariga ikki chiziq chizing.

**Parashut** sporti XX asrning boshlarida paydo boʻlgan. Bu parashutdan foydalanish bilan bogʻliq boʻlgan **aviatsiya** sporti turlaridan biridir. Hatto XV asrdayoq **Leonardo da Vinchi** maxsus matodan yasalgan chodir haqida eslatib oʻtgan. Uning taʼrifi zamonaviy parashut tuzilishini juda eslatib yuboradi.

Vaqt oʻtishi bilan parashutlarning turli xillari: yuk, qutqaruv, **harbiy** va **sport** parashutlari yaratildi. Bugungi kunda parashutlar juda keng tarqalgan. Parashut sporti bilan shugʻullanish uchun iroda kuchi va yaxshi sport tayyorgarligi kerak.



**Leonardo da Vinching birinchi parashuti eskizi**

